

«Veb-hosting xizmatiga buyurtmalar qabul qilish» xizmatiga xizmat ko`rsatish Reglamenti

1. Xizmat tavsifi (pasporti)

1.1. Xizmat nomi

Veb-hosting xizmatiga buyurtmalar qabul qilish

1.2. Xizmat natijasi

Veb-hosting va elektron pochta xizmati UZINFOCOM Markazi DUK da ro`yhatgan o`tkaziladi. Bajaruvchi (UZINFOCOM) va Buyurtmachi o`rtasida (Mijoz) o`rtasida shartnoma tuziladi. Shartnoma rasmiylashtirilgandan so`ng tanlangan tarif reja asosida to`lov amalga oshiriladi va mijozga xizmat ko`rsatiladi.

Bajaruvchi Buyurtmachini o`z billing sistemasida ro`yhatdan o`tkazadi. Buyurtmachiga tanlangan tarif rejasiga asosan disk hajmi ajratiladi va shartnomada ko`rsatilgan elektron pochtaga Buyurtmachiga login va parol, kirish havolasi jo`natiladi.

1.3. Xizmat ko`rsatishi va blanklarni taqdim etishi mumkin bo`lgan davlat organi

Mijozlardan arizalarni qabul qilish va xizmatlarni ko`rsatish (jismoniy va yuridik shaxslar) UZINFOCOM Markazi DUK tomonidan amalga oshiriladi.

Mijozlar shartnomalarni UZINFOCOM Markazi DUK binosida olishlari mumkin.

1.4. Huquqiy asos

28.09.2005 yildagi ПП-191-sonli O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori (Ziyonet Tarmog`i)
24.02.2012 yildagi Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 32-sonli qarori (Davlat organlari uchun veb-hosting)
14.05.2007 yildagi AA №0002009 raqamli UzAAA litsenziyasi
08.07.2013 yildagi AA №0004723 raqamli UzAAVaTT davlat qo`mitasi litsenziyasi

1.5. Xizmat oluvchilar

Barcha davlat va xo`jalik yurituvch organlar, mahalliy davlat hokimiyat organlari, yuridik va jismoniy shaxslar.

1.6. Ariza berish muddati

Buyurtmachi 3-ish kuni davomida Bajaruvchining hisob raqamiga pul mablag`larini o`tkazgandan so`ng rasmiylashtirilgan shartnomalar kuchga kiradi.

Bajaruvchi xizmatni belgilangan muddatda taqdim etmagani uchun qonunda belgilangan tartibda javob beradi.

1.7 Bajarilish muddati

Bajaruvchining hisob raqamiga pul mablagi kelib tushgandan so`ng 3-ish kuni davomida, Buyurtmachiga tanlangan tarif rejasiga asosan disk hajmi ajratiladi va shartnomada ko`rsatilgan elektron pochtaga Buyurtmachiga login va parol, kirish havolasi jo`natiladi. Xizmat 1 yil davomida taqdim etiladi.

2. Xizmat oluvchilarga axborot yetkazish

2.1. Tarkib va ma`lumot hajmi

Har bir murojaat qilgan shaxsga quyidagi axborotlar taqdim etiladi:

- davlat organining manzili va joylashuvi, ko`rsatiladigan xizmatlar ro`yhati, ish vaqti, murojaatchilarning qabul qilish jarayoni (telefon orqali oldindan yozuv, murojaatlar uchun kundagi qabul, jonli navbat va boshqalar);
- xizmat olish uchun kerakli hujjatlar ro`yhati;
- blanklarning to`ldirilishi jarayoni va turlari, hisob-kitob turlari;
- xizmat olish jarayoni;
- xizmat ko`rsatish muddati;
- xizmatning reglamenti mavjudligi va reglament bilan tanishib chiqish usullari.

2.2. Keng ma`lumot yetkazish

Veb-hosting va elektron pochta xizmati to`g`risidagi batafsil ma`lumot www.dc.uz saytida taqdim etilgan. Shuningdek, buyurtmachi batafsil ma`lumot olish uchun quyidagi telefon raqamlari orqali bog`lanishi mumkin: 238-42-37, 238-42-38

2.3. Talabga ko`ra ma`lumot berish

Shaxsan: soat 9-00 dan 18-00 gacha xizmat haqidagi barcha savollar bo'yicha og'zaki konsultatsiya (10 minutdan ortiq emas) va kerakli hujjatlar ro'yhati haqidagi yozma ma'lumot.
Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha xizmat haqidagi aniq va ko'p ma'lumot berish talab qilinmagan barcha savollar bo'yicha og'zaki konsultatsiya (5 minutdan ortiq emas), masalan davlat boji to'lash uchun rekvizitlar.
Faks orqali: 24 soat davomida har turdagi yozma arizalar, 9-00 dan 18-00 gacha talabga ko'ra yozma hujjatlar jo'natiladi (3 varaqdan ko'p bo'lmagan).
Elektron pochta orqali: 24 soat davomida har xil turdagi ommabop elektron formatdagi arizalar (oddiy matn, ilova qilingan DOC, RTF, PDF formatdagi hujjatlar) yoki boshqa kelishuvlar (standart jo'natishga tayyor hujjatlar, kerakli blanklar, joylashuv sxemasi)

2.4. Xizmat ko'rsatish manzili

Toshkent sh, Navoiy ko'chasi 28-B. Mo'ljal: Sobiq Markaziy Telegraf, café "Barlos", AK "O'zbektelecom", Aloqa tarixi muzeyi, 4-stomatologiya poliklinikasi.

2.5. Foydalaniladigan blank (forma) va hujjatlar

Shartnoma olish uchun Buyurtmachi tomonidan agar jismoniy shaxs bo'lsa, shaxsini tasdiqlovchi hujjat (passport), yuridik shaxslarga yuridik shaxs maqomi berilganligi haqidagi guvohnoma.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Ish vaqti soat 9-00 dan 18-00 gacha. Dam olish kunlari shanba va yakshanba.

3.2. Kutish tartibi

Jonli navbat

4. Xizmat ko'rsatish jarayoni

4.1. Kerakli hujjatlar

Buyurtmachi shartnoma blankini UZINFOCOM DUK Markazidan olishi mumkin. Shartnoma olish shartlari ushbu reglamentning 2.5. bo'limida ko'rsatilgan.

4.2. Xizmatlar uchun to'lov.

Tanlangan tarif rejaga asosan xizmat uchun to'lov amalga oshiriladi. .
Bajaruvchining bank rekvizirlari:
AKB «Aloqabank»
h/r: 20208000904198204001
Bank kodi: 00401 STIR: 204118319
OKOHX: 82100

Jismoniy shaxs va yuridik shaxslar uchun veb-hosting va elektron pochta xizmati tarif rejalarini

Tarif rejalarini	M 50	M 100	M 250	M 500	M 750	G 1	G 2	G 3	G 4	G 5
Diskdagi umumiy kvota, Mb/Gb	50	100	250	500	750	1	2	3	4	5
Oylik abonent to'lovi so'mda	4 000	6 000	15 000	22 000	25 000	30 000	45 000	55 000	65 000	75 000

Cheklov										
MySQL ma'lumot bazalari soni	1	4	7	8	15	20	30	40	50	60
Domen soni	1	1	2	3	5	10	15	20	25	30
Subdomenlar soni	-	3	5	5	10	10	15	20	25	30
Muqobil domen sonlari	-	1	2	3	5	10	15	20	25	30
Pochta manzillar soni	5	10	20	30	40	45	50	60	70	80
1 ta pochta manzili kvota, Mb	20	40	60	80	100	150	200	250	300	300
FTP akkauntlar soni	1	1	2	3	5	10	15	20	25	30

Imkoniyatlar:

1. FTP xizmati;
2. PHP5, SSL, SSI, CGI, Perl, Phyton, FastCGI, Java-illovalarining mavjudligi.
3. Veb server xatolari haqida foydalanuvchi xabarlari.
4. Muqobil domen nomlarini sozlash.
5. Subdomenlarni boshqarish, DNS zonasini boshqarish, Tomcat veb-illovalarini boshqarish, veb statistikalarni boshqarish. Xat jo'natuvchilar ro'yxatini boshqarish, spam filtrlarini boshqarish imkoniyati.
6. Ma'lumotlarni to'liq rezerv nusxalarini olish, yakshanbadan dushanbagacha o'tar kechasi. Har bir rezerv nusxalari 28 kun davomida saqlanadi.

Barcha narxlar QQS 20%ni hisobga olgan holda ko'rsatilgan

- 1)1-jarayon: Bajaruvchi 2.5. bo'limida ko'rsatilgan barcha hujjatlarning mavjud bo'lgan holdagina buyurtmani Buyurtmachining xohishiga qarab ro'yhatdan o'tkazadi.
- 2) 2-jarayon: Buyurtmachi Bajaruvchining hisob raqamiga pul o'tkazish orqali xizmatga to'lovni amalga oshiradi.
- 3) 3-jarayon: Bajaruvchi Buyurtmachini billing tizimida ro'yhatdan o'tkazadi.
- 4)4-jarayon: Bajaruvchi tanlangan tarif rejasiga asosan o'z blokidan 1 statik IP manzilini ajratadi. Buyurtmachi o'z jihozini Datamarkazda joylashtiradi, Bajaruvchi Buyurtmachining jihozini aloqa uzatish taqrmog'iga va elektr quvvatiga ulaydi.

4.5. Xizmatni rad etish sabablari

Buyurtmachi tomonidan noto'g'ri to'ldirilgan shartnoma. texnik talablarga to'g'ri kelmaydigan sayt sozlamalari talablarga javob bermaganda Bajaruvchi Buyurtmachiga xizmatni taqdim etmaslikka haqli.

Xizmatni rad etishning asosiy omili sifatida:

- shaxsning xizmatdan foydalanish uchun hujjati bo'lmasa yoki uning nomiga ishonchnoma rasmiylashtirilmagan bo'lsa;
- hujjatlar o'rnatilgan talablarga javob bermasa (hujjatlar to'liq emasligi yoki noto'g'ri to'ldirilganligi);
- xizmatdan foydalanish maqsadida murojaat qilgan shaxsning to'g'ri kelmasligi, muayyan talablarga javob bermasligi;
- Buyurtmachining jihozi Bajaruvchining texnik talablariga javob bermasligi yoki mos kelmasligi;

5. Sifatli xizmat ko'rsatish

5.1. Sifatsiz xizmat bo'yicha shikoyat

Buyurtmachi o'z vaqtida bajarilmagan yoki taqdim etilmagan xizmati bo'yicha qonunda belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Veb-hosting davlat xizmatini taqdim etish bo'yicha ishlash sxemasi

